

Huquqni tushunish. Huquqni tushunish konsepsiyalari

REJA:

1. Huquq tushunchasiga yuridik yondashuvlar.
2. Yuridik (tabiiy-huquqiy) huquq. Huquqiy tenglik tamoyili
3. Huquqni tabiatan insonlarga berilgan mavjud obyektiv erkinlik sifatida baholanishi
4. Huquq – irodaning qonun darajasiga ko‘tarishda namoyon bo‘luvchi kishilar hulq-atvorining normativ regulyatori ekanligi



Huquq ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni tushunishda qarama-qarshi ikki xil, bir tomonidan yuridik va ikkinchi tomonidan, legistik qarashlar mavjud. Huquq tushunchasiga yuridik yondashishda huquqning hodisa sifatida asl ma'nosini yoritilishga harakat qilinsa, legistik tushunishda huquqni tushunchasi rasmiy hokimiyat tomonidan o'rnatilgan qonun tushunchasi bilan aynanlashtiriladi.

Yuridik (tabiiy-huquqiy) huquq esa - bu rasmiy hokimiyatning erkin va sub'ektiv irodasining oddiy ifodasi emas, aksincha qonun chiqaruvchining irodasiga bog'liq bo'limgan ob'ektiv, mustaqil, o'z tabiatiga, mohiyatiga, o'z xususiyatiga, qolaversa o'z tashkil etuvchi tamoyiliga ega bo'lgan ijtimoiy tuzilmadir.



Qonunning umummajburiyligida ikki turli xil, lekin o'zaro bog'liq jihatlar bor. Birinchisi, rasmiy hukumat darajasida aniqlashtiriladi, muhofazalanadi, umummajburiyligini talab qiladi. Ikkinchi jihatda qonunning umummajburiyligini, uning huquq sifatida namoyon bo'lishida ko'rildi. Qonun umummajburiyligi uchun emas, huquqiy bo'lganligi uchun tan olingan bo'lishi lozim.


Huquqni tabiatan insonlarga berilgan mavjud ob'ektiv erkinlik sifatida baholash bilan umummajburiy qonun sifatida qabul qilinishi o'rtasida azaldan babs-munozara yuritiladi. Jumladan, bu o'rinda Rim stoiklarining yorqin namoyandalaridan biri bo'lmish Lutsiy Anney Senekanining «umumiyl farovonlik» konsepsiyasini keltirish mumkin.

Senekaning fikricha, insonlarning mavjudligini, ijtimoiy mohiyatini belgilovchi birlamchi huquq ilohiyotdan belgilab berilgan «taqdir qonuni» hisoblanadi. Bu qonunda insonlarning huquq va erkinliklari tabiatan cheklanmagan bo'lib, uning chegarasini faqat quyoshning mangu harakati belgilashi mumkin. Lekin insonlar bunga qanoat qilmay bir-birlarining huquq va erkinlik-larini cheklovchi qonunlar yaratadilar va shu bilan o'zlarining ilohiyotdan tabiatan in'om etilgan huquqlaridan mahrum bo'ladi-lar deb baho beradi Seneka. Mutafakkir fikricha, bunday adolat-sizlikni faqat barchaning umumiyligi farovonligini ta'minlagan g'oyibdan bizga in'om etilgan buyuk davlat, Seneka ta'biri bilan aytganda, «katta davlat»gina bartaraf etishi mumkin.



Lutsiy Anney Seneka

Qadimgm yunon mutafakkirlaridan biri bo'lmish Demokritda ham huquqni tushunishda ikki xil izoh uchraydi. Demokrit fikricha, insonga tabiiy adolat mansubdir va bunday ziyoli insonlar uchun ma'lum bir tartibga, qonunga bo'y sunish shart emas, chunki ularda tabiatanadolatlilik tamoyillari shakllangan va ular o'z harakat-larida doimo erkindirlar. Lekin o'zida bunday erkinliklarni shakllantira olmagan kimsalar tabiatan insonga berilgan erkinlik timsolidagi huquqqa emas, aksincha insonlar tomonidan bir-birlarini nazorat qilish uchun yaratilgan qonunlarga bo'y sunishlari lozim.



Yana bir mashhur Rim yuristi, davlat arbobi Siseron fikricha, huquq asosidaadolat yotadi. Adolat o'zgarmas va abadiy bo'lib, umuman, tabiatning, qolaversa, inson tabiatining ajralmas qismidir. Shuning uchun ham ilohiyotdan keluvchi qonun haqqoniy bo'lib, davlat ham, undagi qonun va majburiyatlar ham uning voqeiy ifodasidir, deb ta'kidlaydi Siseron. Bu keltirilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, Siseron o'z qarashlarida insonning ob'ektiv huquqi masalasini qonun tushunchasi bilan umumlashtirib yuboradi. Sharq mutafakkirlari ham huquq tushunchasiga o'z izohlarini berib ketishgan. Masalan, Farobiy fikricha, huquq mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish vositasidir.

Huquq – bu jamiyat manfaatlariga mos keluvchi, kishilar hulq-atvorining teng va nisbiy adolat mezoni. Huquq -davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq bo'limgan mavhum huquqiy munosabatdir. Huquq – irodaning qonun darajasiga ko'tarishda namoyon bo'luvchi kishilar hulq-atvorining normativ regulyatori. Huquq - adolat va erkinlik g'oyalarining ifodachisidir. Huquq - bu rasmiy (formal) tenglikdir. Huquq - bu insonlar ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'luvchi erkinlikning eng umumiyligi va zaruriy shaklidir. Huquq – bu eng umumiyligi adolatdir, degan ta'riflar huquqning qonundan farqini ifodalovchi umumiyligi va ob'ektiv jihatlarini ko'rsatadi.

Normativ tizim – bu jamiyat, qolaversa, muayyan bir jamoada kishilar xulq-atvori va ular o’rtasidagi ijtimoiy-texnik va tabiiy atrof muhit bilan bo’ladigan munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar majmuasidir. Normalar tizimi ikki tashkil etuvchi bo’laklar - texnikaviy va ijtimoiy normalarga bo’linadi.

Texnikaviy normalar – «inson-mashina» munosabatlarini tartibga soladi. Texnikaviy normalar tabiiy va sun’iy ob’ektlar bilan munosabatlarining eng samarador metod va vositalarini, shuningdek, texnologik jarayonlarning izchilligi va mazmuniylik darajasini aniqlashtirib beradi. Ijtimoiy normalar muayyan soha, usul va jihatlariga ko’ra quyidagi turlarga bo’linadi:

Ijtimoiy normalar – insonlar va ularning birlashmalari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiyl xulq-atvor qoidalari bo’lib, «inson-inson» munosabatlarini tartibga soladi.

Ijtimoiy normalar o’rnatilganlik va ta’milanganlik usullariga ko’ra huquq normalari, urfatlar, ijtimoiy birlashmalar normalariga bo’linadi.

Tartiblashtiruvchi munosabatlar sohasining mazmuniga ko’ra siyosiy, tashkiliy, axloqiy, estetik va boshqalarga bo’linadi.

Tashkil etish uslublariga ko’ra stixiyali va onglilik turlariga bo’linadi.

Ifodalanish shakliga ko’ra og’zaki yoki yozma shaklga bo’linadi.

Odat normalari – kishilar o’rtasidagi munosabatlarda ko’p marotoba takrorlanganligi uchun odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o’tib kelayotgan xulq-atvor qoidalari.

An’ana normalari – ilg’or an’analarni asrash munosabati bilan yuzaga kelgan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidalari.

Marosim normalari – kishilarning ma’lum rasm-rusmlarni bajarishdagi xulq-atvor qoidalari.

Diniy normalar – dindorlarning xudoga, machitga, cherkovga, bir-biriga munosabatini, diniy birlashmalarni tashkil qilish va ularning amal qilishini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari hisoblanadi.

Siyosiy normalar – alohida shaxslar va siyosiy birlashmalarning hokimiyatga munosabati masalalarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalaridir.

- ▶ Huquq normasi boshqa ijtimoiy normalar singari jamiyatda muayyan vazifalarni bajarishni o’z zimmasiga olgan va ularni quyidagilarda ko’rishimiz mumkin:
- ▶ Tartibga soluvchi funksiyasi – tegishli ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlarni va u yoki bu sub’ekt faol xulq-atvorining mezonini mustahkamlash va rivojlantirish;
- ▶ Qo’riqlash funksiyasi – huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, ularni qo’llash va javobgarlikni o’tash tartibini o’rnatishdan iborat;
- ▶ Tarbiyaviy funksiyasi – turmushda nimalarni qilish mumkin, nimalar esa taqiqlanadi, u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilish lozimligini belgilashdan iborat. Bunda huquq ishontirish metodiga tayanadi, zarur bo’lganda majburlash metodini, hatto jazolashni ham nazarda tutadi.

- ▶ Huquq normasining o'zining ichki tuzilishiga kelsak, u uch tarkibiy qismdan iborat: 1) gipoteza. 2) dispozitsiya. 3) sanksiya.
- ▶ Gipoteza – huquq normasining tarkibiy unsuri bo'lib, u ushbu huquqiy normaning qanday sharoitlarda amalga oshishini belgilovchi hayotiy sharoit va mavjud holatlarni ko'rsatadi, ya'ni huquq normasida belgilangan xatti-harakat qanday sharoitlarda bajarilishi lozimligini ko'rsatadi. Gipotezada huquq normasida belgilangan qoida qay sharoitda va qay holatda hamda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lган muayyan aniq hayotiy holatlar (voqeа, harakat, holatlar) o'z ifodasini topadi.

- ▶ Dispozitsiya – huquq normasining tarkibiy qismi bo’lib, unda huquq sub’ektlarining huquq va majburiyatlari belgilanadi va ularning bo’lishi mumkin bo’lgan xatti-harakatlari variantlari aniqlanadi.
- ▶ Sanksiya – yuridik normaning tarkibiy qismi bo’lib, u huquqiy norma buzilgan holda huquq buzgan shaxsga nisbatan qo’llaniladigan davlat majburlov chorasining turini belgilaydi. Sanksiyada dispozitsiyada ko’rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin jazoning turi va o’lchovi ifodalangan bo’ladi.
- ▶ Demak, gipoteza – dispozitsiyada ko’rsatilgan qoidaning kim va qachon bajarishi lozimligini ko’rsatadi; dispozitsiya esa – bajarilishi lozim bo’lgan qoidaning nimadan iboratligini ko’rsatadi; sanksiya esa – normani bajarilish va bajarilmaslik oqibatlarini ko’rsatadi.